

2. “Turkiston jadidlari qarashlarida xotin- qizlar va yoshlar masalasi” Xurramova Zilola Ilhom qizi T.: 2018 y
3. Раҳимова Г. Жадидлар ва аёллар масаласи. //Адабий мерос, 1992.
4. Абдуллаева. Д. Ёшларни оилавий ҳаёгга тайерлашда аёлнинг роли.//Ўзбекистонда оила, давлат ва жамият қурилишида аёлларнинг роли ва Гендер муаммолари: Илмий-амалий конф. маърузалари тўплами.–Т.: 1999.

MALAKA OSHIRISH KURSI TINGLOVCHILARIGA JADIDCHILIK MEROSINING O‘QITILISHI IJTIMOY ZARURAT SIFATIDA

Begimqulov Zarif Axmadovich

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali “Sport psixologiyasi, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar” kafedrasini mudiri,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Email: zarifbegimqulov77@gmail.com, Telefon:+99890-503-62-77

Annotatsiya: Mazkur maqolada Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida malaka oshirayotgan “Sport ta’lim muassasalari tarbiyachilari” sport ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi tinglovchilariga Turkiston jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan ilgari surilgan salbiy illatlar, zararli odatlar va inson salomatligi to'g'risidagi qarashlarini o'qitish zarurati haqida so'z boradi.

Kalit so'z va iboralar: malaka, jadidlar me'rosi, tarbiya, poklik, zararli odatlar, salomatlik.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida e'tirof etganidek: “Farzandlarimizni har tomonlama barkamol, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq insonlar etib tarbiyalashda taraqqiyparvar ajdodlarimizning aql-zakovati, iroda va matonati barchamiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o'rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz. Bu noyob meros orqali bugungi kunda insoniyatni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topa olamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab etadi” [1].

O'zbekiston Respublikasi Sport vazirining 2024-yil 16-dekabrda “Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallarida 2025-yilda o'tkaziladigan malaka oshirish kurslari reja-jadvali va tinglovchilar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida”gi 01/1880-A/F-sonli buyrug'i bilan imzolangan bo'lib, unda jumladan sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar uchun “Sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilari” malaka oshirish kurslari joriy etilishi belgilangan.

2024-yildan e'tiboran tashkil etilayotgan mazkur malaka oshirish kurslariga asosan quyidagi ta'lim muassasalarining pedagog kadrlari qamrab olingan:

- Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarining tarbiyachilari;

- milliy va olimpiya sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlarining tarbiyachilari.

Yuqorida qayd etilgan buyruqqa asosan, 2025-yilda ham O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tasarrufidagi 15 ta Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlari hamda 16 ta milliy va olimpiya sport turlariga ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatlarining tarbiyachilari jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar sifatida malakasini oshirishga jalb qilinishi rejalashtirilgan.

Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislar o'zlarining kasbiy faoliyati davomida har kuni ko'p qirrali, ko'p funksiyali va kasbiy jihatdan murakkab ishlarni bajaradilar, shu jumladan inson shaxsi va ularning sog'ligi bilan bog'liq jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va sport xizmatlarini ko'rsatadi. Bu esa ulardan ayniqsa yuqori sifatli ishlarni bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda har bir mutaxassis o'z ish faoliyati uchun shaxsan javobgarligini, alohida e'tibor va kasbiy mahoratni talab qiladi.

Ayniqsa, ushbu mutaxassislarning muntazam ravishda o'smirlar va yoshlar bilan ish olib borishi, ularning tarbiyaviy ishlar bilan bog'liqligi, alohida ahamiyatga egadir [5].

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, "Sport ta'lim muassasalari tarbiyachilari" malaka oshirish kursiga malaka oshirishga kelayotgan sport ta'lim muassasalarining tarbiyachilarining aksariyati oliy ma'lumotli mutaxassislar hisoblanib, ular ish jarayonlarida asosan umumta'lim fanlari bo'yicha darslar va tanlangan sport turidan sport mahoratini oshirish mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda muassasa tarbiyalanuvchilari (yosh sportchilar) bilan dars tayyorlash, o'quvchilar istiqomat qilayotgan xonalarni tartibga keltirish hamda turli tadbirlar o'tkazish bilan shug'ullanib kelmoqdalar [2].

O'tkazilgan tahlillar malaka oshirish jarayonida sport ta'lim muassasalari tarbiyachilarining kasbiy mahorati, bilim, ko'nikma va malakalarini chuqurlashtirish, ularning ma'naviy-axloqiy saviyalarini oshirishda jadidchilik me'rosidan foydalanishni taqozo qilmoqda.

"Sport ta'lim muassasalari tarbiyachilari" sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi uchun tasdiqlangan "Ma'naviyat va yoshlarga oid davlat siyosati" modulining "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalari" deb nomlangan mavzusini jumladan, "Jadidlarning

ma'naviy me'rosi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish omili" rejasi asosida ham o'qitilishi belgilangan.

Ma'limki, jadidchilik namoyondalari voyaga etgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo'lib etishishi kerakligini o'z asarlarida alohida uqtirgan holda, bunda ular har xil illatlardan xalos bo'lishlari lozimligini ham qayd etadilar. Jumladan, Turkiston jadidlarining asarlarida kishilar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, o'z vaqtida va to'g'ri ovqatlanish, inson sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zararli odatlar va salbiy illatlardan tiyilish, kishilarni o'z sog'lig'iga bo'lgan munosabatini tubdan o'zgartirish, jismoniy harakat – hayotning eng muhim xususiyati to'g'risidagi qiziqarli fikrlarni uchratish mumkin. Shuningdek, jadidlar jismoniy faollikning etishmasligi natijasida odamlarda turli kasalliklarning kelib chiqishi, inson iloji boricha uzoq yashashga, bunda o'z salomatligi va mehnat qobiliyatini saqlashga harakat qilishi zarurligi, bunda jismoniy harakat, toza havoda sayr qilish, me'yorida va o'z vaqtida to'g'ri ovqatlanish, xotirjam bo'lish va boshqalar odamni uzoq umr ko'rishga imkon berishini uqtiradilar.

Yangi ziyolilarning qarashlarida eng avvalo, aholining barcha ijtimoiy qatlamlari orasida hukm surgan savodsizlikni tugatish, eski ta'lim tizimini isloh qilish, qoloq, salbiy va behuda odatlarga chek qo'yish singari maqsadlar ilgari surildi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ular ayniqsa diniy mutaassiblik, behuda sarf-xarajatlarga olib keluvchi an'anaviy odatlarga tanqidiy yondashgan.

“Sport ta'lim muassasalari tarbiyachilari” sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi tinglovchilariga “Ma'naviyat va yoshlarga oid davlat siyosati” modulining “Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish masalalari” deb nomlangan mavzuni o'tish jarayonida bir qator jadidchilik harakati namoyondalarining asarlarida qayd etilgan salbiy illatlar, zararli odatlar va inson salomatligiga oid dolzarb masalalarni yoritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

Jumladan, “Navodir ul-vaqoye” asaridagi g'oyalari Ahmad Donishni inson haqida quyidagi falsafiy nuqtayi nazarda turganligidan dalolat beradi: inson tana va ruhdan iborat mavjudotdir; inson ruhi uning kamolotiga yordam beradi; tana istaklari asosida tug'iladigan nafsni boshqarish zarur, bo'lmasa u insonni tanazzulga olib keladi; insonga berilgan ixtiyor, erk uni baxtli yoki baxtsizligi mezonidir; inson butun olam bilan uyg'un, muvofiqdir, shuning uchun uning har bir ta'siriga mos aks ta'sir hosil bo'ladi; insonda nur va zulmat, rahmoniy va shaytoniy quvvatlar mavjud bo'lib, ularni ezgulikka ravona etish uchun insonga ixtiyor berilgan; aql moddiy yordam narsalarni bilishga qodir, uning kuch-quvvatining chegarasi bor, ruh butun olamning aslini bila oladi; ruhning eng a'losi va musaffosi va murakkabi insonga singdirilgan va u abadiydir, uning tabiiy manbai yurak; tana to'rt unsuridan iborat, uning mijozini me'yorda saqlash lozim; inson borlig'ida hayvoniy, shaytoniy,

malakoniylar quvvatlar mavjud; har bir inson o'ziga xos bo'lib, olamda o'ziga yuklatilgan qazoyu qadardagi vazifani bajaradi; inson asl haqiqatni bila oladi; inson haqiqatda ulug' olamdir" [6].

"Turkiston viloyatining gazetisi"da bosilib chiqqan "To'raqo'rg'ondan maktub" maqolasida Is'hoqhon Ibrat xalq ma'naviyatining illatlarini, yoshlar tarbiyasining kamchiliklarida ota-onalarining rolini e'tirof etadi. Yoshlikda bolaga bilim berish o'rniga uning ma'naviyatini zaharlovchi illatlar tomon etaklash jaholatga etaklash bilan barobardir. Shu o'rinda ma'rifatparvar bugungi kunda ham jamiyat rivojiga g'ov bo'luvchi ko'pgina illatlarga qarshi kurashda bilimni, o'qishni yagona echim sifatida ko'rsatadi [7].

Behbudiyning ta'kidlashicha, to'y va azadagi har qanday dabdababozlik va manmanlik yuqumli kasallikdan yomonroq bo'lib, bu illatlar kishilarni xonavayron va g'arib etuvchi, inqirozga sabab bo'luvchi dushmandir. U ayrim kimsalarning Qur'ondagi o'zingizni o'zingiz tahlikaga solmangiz, degan qoidaga amal qilmasdan, bor-yo'qlarini to'y va azaga sarflashlarini kofirlik, deb hisoblaydi. Darhaqiqat, to'ylardagi dabdababozlik, ayrim hollarda ichkilikning me'yoridan ortiq iste'mol qilinishi ta'ziyalardagi isrofgarchilik, islom diniga zid bo'lgan mavrid-ma'rakalar o'sha davrlardagina emas, hozir ham odamlarning bir necha kunlab ishdan qolishlari yoki foydali ish bilan mashg'ul bo'lmasliklariga olib kelmoqda. Bu haqda Behbudi shunday deydi: "Biz bo'lsa, o'luk va to'y uchun haftalar, hatto oylar ila ishdan qolurmiz. Holbuki, shore'i a'zam, payg'ambari akram sallollohu alayhi vassalam hazratlari o'lganni tez ko'mub va ko'ngandan so'ngra tez tarqalib, ishg'a ketmoqg'a va o'lukxona xalqini uch kundan ziyoda ta'ziya tutmasg'a, qaro kiymasg'a, kir, falokat bo'lmasg'a amr etarlar" [3].

Ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodni hamisha ezgulikka undaydigan komil inson g'oyasi Fitrat asarlaridan o'qildiz bo'lib o'tgandir. Bu bunyodkor g'oya nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni tengsiz yutuqlarga ilhomlantirgan. Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodni voyaga etkazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Fitrat asarlarini mutolaa qilar ekamiz, ana shunday xulosaga kelamiz. Alloma har doim yoshlar haqida qayg'urib, ularni jismonan sog'lom, ilm-fan sohibi qilib kamol toptirish xususida fikr bildirdi. Uning vatanparvarlik, xalqparvarlik, ilm-fan taraqqiyoti haqidagi g'oyalari hozirgi davr uchun qimmatlidir [4].

Fitrat yoshlarni ozod va obod Vatan barpo etishga, uning ravnaqi, xalq farovonligi, millat ozodligi uchun kurashishga, sajdagoh kabi muqaddas go'sha – Vatanni ardoqlashga undab keldi: "Vatan bizning valine'matimiz va murabbiyimizdir; har bir valine'mat va murabbiyga xizmat qilish lozim, bas, Vatanga xizmat burchdir" [8].

XIX asr oxirida tarix sahnasiga kelgan jadidlar xalq va millatning hayoti va kelajagi uchun tinmay zahmat chekkanlar, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Ular "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar. Milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, avvalo, ma'rifat orqali, dunyoviy va diniy bilim, zamonaviy ilmlar hunarlarini chuqur egallash orqali erishish mumkin, deb hisobladilar.

"Sport ta'lim muassasalari tarbiyachilari" sport ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning malaka oshirish kursi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti va uning filiallaridagi yangi tashkil etilgan yo'nalish hisoblanadi. Sport ta'lim muassasalari tarbiyachisi, eng avvalo, yosh sportchilarning kelajagi, taqdiri, jamiyatda munosib o'rnini egallashi uchun yuksak mas'uliyatni to'la anglab etishi zarur. Bugungi kunda tez o'zgaruvchan dunyoda ijtimoiylashgan, tafakkuri, madaniyati va ma'naviyati yuksak, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lgan shaxsni tarbiyalashda ajdodlarimiz me'rosidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Jadidlar merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigi. Yangi O'zbekiston gazetasi 2023-yil 7-mart, № 45 (834).
2. Begimqulov Z. Sport ta'lim muassasalari tarbiyachilarining uzluksiz malaka oshirish jarayonini tashkil etishning dolzarb masalalari. "Jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish muammolari va istiqbollari" mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani to'plami (I-qism), B.39-45.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Bizni kemirguvchi illatlar. Tanlangan asarlar. T.: Ma'naviyat, 2006. – B.145-146.
4. Pedagogika tarixi. – T.: 2000. – B.144-146.
5. Utenov O. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida uzluksiz ta'lim. Akademik Research in Educational Sciences. Volume 4, Issue 9, 2023, 104-bet.
6. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое. Форс-тожикчадан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси. – Т.: Фан, 1964. – 361 б.
7. Туркистон вилоятининг газети, 1914 йил 2 март, №18.

8. Фитрат А. Рахбари нажот. – Т.: Шарқ, 2001, 6-бет.

TURKISTON JADID NAMOYONDALARINING YANGI O'ZBEKISTON VA JAHON HAMJAMIYATIDA TUTTGAN O'RNI

Hamroyeva Anora Faxreddenovna

Navoiy Innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadid namoyondalarining yangi O'zbekiston va jahon hamjamiyatidagi o'rni o'rganilgan. Jadidchilik harakati, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda keng tarqalib, ilm-fan, ta'lim, siyosat va madaniyat sohalarida islohotlar amalga oshirishga qaratilgan edi. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda yashagan jadid namoyondalari o'z milliy, madaniy va siyosiy o'zliklarini qayta tiklashga intilgan va bu g'oyalari mustaqil O'zbekistonning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Jadidchilik harakati nafaqat O'zbekistonda, balki butun musulmon dunyosida ijtimoiy, siyosiy va madaniy islohotlarni ilgari surdi. Maqola jadidchilik harakatining O'zbekiston mustaqilligi yo'lidagi ahamiyatini, ta'lim tizimining zamonaviylashtirilishi va ilm-fanning rivojlanishidagi rolini tahlil etadi. Shuningdek, jadidlarning g'oyalari bugungi kunda ham O'zbekiston va jahon hamjamiyatida katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, Turkiston, O'zbekiston, ilm-fan, ta'lim islohotlari, siyosiy islohotlar, madaniyat, milliy o'zlik, jahon hamjamiyati, ma'rifatparvarlik, mustaqillik, zamonaviylashtirish.

Jadidchilik harakati, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, Turkistonning turli viloyatlarida keng tarqalib, o'zining ma'rifatparvarlik va islohotchilik g'oyalari bilan tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Bu harakat o'z vaqtida faqat Turkiston, balki butun musulmon dunyosida ilm-fan, ta'lim va siyosiy tizimlarni yangilashni maqsad qilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda yashagan jadid namoyondalari, o'zgarishlarga intilib, o'z milliy, madaniy va siyosiy o'zliklarini qayta tiklashga harakat qildilar. Turkiy xalqlarning eng ilg'or ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar sari qadam tashlagan bu jamiyat fidokorlarning g'oyalari bugungi kunda mustaqil O'zbekistonning taraqqiyotida va jahon hamjamiyatida muhim o'rin tutadi.

Jadidchilik harakatining o'zbekiston taraqqiyotiga ta'siri. Turkiston jadid namoyondalari, o'zlarining ma'rifatparvarlik va ilmiy islohotlarga bo'lgan e'tiborlari orqali, o'z vaqtida muhim jamiyatshunoslik va pedagogik yondashuvlarni ilgari surdilar. Ular o'quvchilarni faqat diniy fanlarda emas, balki dunyoqarashni kengaytiradigan ilm-fan va tafakkur sohalarida ham ta'lim olishlariga chaqirdilar. Jadid maktablari zamonaviy ta'limni ilgari surib, yosh avlodni o'zgacha bir dunyoqarash bilan tayyorlashga qaratilgan edi. Ular o'zbek tilida ta'lim berish g'oyasini ilgari surib, xalqni ilm-fan bilan tanishtirish, milliy o'zlikni rivojlantirishni maqsad qilishdi.